



UDK:940.53/54:355.123.1(045)

Alisher PARNOMOV,

Shahrisabz tumani 75-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti dotsenti A.Mamatqulov taqrizi asosida

THE ASSISTANCE OF UZBEKISTAN WORKERS TO THE FRONT AND SOLDIERS' FAMILIES DURING THE GREAT PATRIOTIC WAR

Annotation

During the Great Patriotic War, the Uzbek people provided significant material and moral support to frontline soldiers and their families. The state introduced special allowances, payments, and benefits, while local authorities and public organizations actively participated in support measures. The population of the republic contributed food, clothing, and financial resources to meet military needs. Enterprises and cooperatives, through special funds, provided assistance to the families of servicemen. At the same time, issues of employment and social support were addressed. The initiatives in Kashkadarya region demonstrate the scale of these efforts. The wartime experience vividly reflected the social unity and high patriotism of the people.

Key words: Great Patriotic War, Uzbekistan, soldiers' families, material support, allowance, social policy, workers, patriotism, Kashkadarya, benefits.

ПОМОЩЬ ТРУДЯЩИХСЯ УЗБЕКИСТАНА ФРОНТУ И СЕМЬЯМ ФРОНТОВИКОВ В ГОДЫ ВЕЛИКОЙ ОТЕЧЕСТВЕННОЙ ВОЙНЫ

Аннотация

В годы Великой Отечественной войны узбекский народ оказал значительную материальную и моральную помощь фронтовым бойцам и их семьям. Государством были введены специальные пособия, выплаты и льготы, а местные органы власти и общественные организации активно участвовали в мероприятиях по поддержке. Население республики собирало продукты питания, одежду и денежные средства для обеспечения военных нужд. Предприятия и артели через специальные фонды оказывали помощь семьям фронтовиков. Наряду с этим решались вопросы трудоустройства населения и социальной поддержки. Примеры инициатив Кашкадарьинской области демонстрируют масштаб этих процессов. Опыт военных лет ярко отразил социальное единство и высокий патриотизм народа.

Ключевые слова: Великая Отечественная война, Узбекистан, семьи фронтовиков, материальная помощь, пособие, социальная политика, трудящиеся, патриотизм, Кашкадарья, льготы.

ULUG' VATAN URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTON MEHNATKASHLARINING FRONT VA FRONTVIKLAR OILALARIGA KO'RSATGAN YORDAMI

Annotatsiya

Ulug' Vatan urushi yillarida O'zbekiston mehnatkashlari frontdagi jangchilar va ularning oilalariga katta moddiy hamda ma'naviy yordam ko'rsatdilar. Davlat tomonidan maxsus nafaqalar, to'lovlar va imtiyozlar joriy etilgan bo'lsa, mahalliy hokimiyat va jamoat tashkilotlari ham qo'llab-quvvatlash ishlarida faol ishtirok etdilar. Respublika aholisi front uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak va mablag' yig'ib topshirib, harbiy ehtiyojlarni ta'minlashga hissa qo'shdi. Korxonalar va artellar maxsus fondlar orqali frontoviklar oilalariga yordam ko'rsatdilar. Shu bilan birga, aholining ishga joylashtirilishi va ijtimoiy g'amxo'rlik masalalari hal etilib bordi. Qashqadaryo viloyati misolida amalga oshirilgan tashabbuslar bu jarayonning ko'lamini namoyon etdi. Urush yillaridagi tajriba xalqning ijtimoiy birdamligi va yuksak vatanparvarligini yaqqol ifoda etdi.

Kalit so'zlar: Ulug' Vatan urushi, O'zbekiston, frontoviklar oilalari, moddiy yordam, nafaqa, ijtimoiy siyosat, mehnatkashlar, vatanparvarlik, Qashqadaryo, imtiyozlar.

Kirish. Ulug' Vatan urushi yillari sovet xalqlari uchun og'ir sinov davri bo'ldi. Urush nafaqat frontdagi janglarda, balki tildagi mehnat maydonlarida ham davom etdi. Bu jarayonda O'zbekiston SSR aholisi jonkuyarlik va yuksak fidoyilik bilan frontdagi askarlar va ularning oilalarini moddiy hamda ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shdi. Davlat tomonidan belgilangan nafaqa va imtiyozlar bilan bir qatorda, mahalliy hokimiyat, jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalari tashabbuslari ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Respublika mehnatkashlari oziq-ovqat, kiyim-kechak, mablag' va harbiy texnika yig'ib, frontga yo'naltirdilar, shu bilan birga frontoviklar oilalari uchun ish o'rinlari va ijtimoiy yordam shakllarini tashkil etdilar. Bu jarayon xalqning ijtimoiy birdamligini, milliy hamjihatlik va internatsional yordam an'analarini yaqqol namoyon qildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Urushdan keyingi yillarda chop etilgan adabiyotlarda ham Ulug' vatan urushi

yillarida O'zbekiston mehnatkashlarining front qatnashchilari va ularning oilalariga ko'rsatilgan yordam masalalari tahlili davom ettirildi. Masalan, N.A. Voznesenskiy birinchi marta urush davriga oid mehnat va ish haqi, tovar aylanmassi hamda narx siyosatiga oid ma'lumotlarni yig'ib, umumiy xulosalar chiqardi. Shuningdek, P.Y. Tsitkilov, Y.E. Chadaev, S.A. Kuskovlarning asarlarida sovet tarixshunosligi ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun nazariy asos sifatida qo'llanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiy-tahliliy, qiyosiy va statistik metodlardan foydalanildi. Asosiy manba sifatida davlat arxivlari hujjatlari, urush yillarida chop etilgan gazeta va jurnallar, hukumat qarorlari hamda zamonaviy tarixshunoslik asarlari o'rganildi. Qashqadaryo viloyati misolida mahalliy tashabbuslar va amaliy yordam ko'lamini yoritishda hududiy arxiv materiallari ham tahlil qilindi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar tahlili orqali sovet davri

va mustaqillik davri tarixshunosligidagi yondashuvlar qiyosiy o'rganildi. Tadqiqotda kompleks yondashuv qo'llanilib, davlat siyosati, jamoat tashkilotlari faoliyati va aholining tashabbuslari o'zaro bog'liq holda tahlil etildi.

Tahlil va natijalar. Frontoviklar oilalariga moddiy yordam ko'rsatishning dastlabki vositalari davlat tomonidan belgilangan nafaqalar, to'lovlar va imtiyozlardan iborat edi. Xususan, SSSR Oliy Sovet Prezidiumining 1941 yil 26 iyunda qabul qilingan «Harbiy xizmatchilarning safdagi va kichik komandirlar tarkibi oilalariga urush davrida nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Farmoni asosida harbiy xizmatchilarning mehnatga yaroqsiz oila a'zolari nafaqa bilan ta'minlandi. Bu toifaga farzandlari, 16 yoshga to'lmagan (o'quvchi bo'lsa 18 yoshgacha) ukalari va singillari, pensiya yoshidagi mehnatga yaroqsiz ota-onalari, shuningdek yoshiga bog'liq bo'lmagan holda I va II guruh nogironlari sifatida e'tirof etilgan xotinlari va ota-onalari kiritildi. Bir mehnatga yaroqsiz shaxs uchun shaharda oyiga 100 rubl, qishloqda esa 50 rubl to'landi. Ikki nafar mehnatga yaroqsiz a'zoga mos ravishda shaharda 150 rubl, qishloqda 75 rubl, uch va undan ko'proq shaxslarga esa shaharda 200 rubl, qishloqda 100 rubl miqdorda nafaqa belgilandi[1]. 1942 yil iyulida ushbu to'lovlarning eng yuqori miqdori shahar aholisi uchun 50 rublga, qishloq aholisi uchun esa 25 rublga oshirildi. Shahar va qishloq aholisi uchun nafaqalar miqdorining turlicha belgilanishi, avvalo, dehqon oilalari o'z oziq-ovqat ehtiyojini muayyan darajada mustaqil qondirish imkoniyatiga ega bo'lgani, mahsulotlarni esa ichkilolxo'z narxlarida xarid qilishlari mumkinligi bilan izohlanadi. Shahar aholisida esa bunday imkoniyat mavjud emas edi.

Urush yillarida harbiy xizmatchilar oilalariga davlat tomonidan ko'rsatilgan yordam muayyan bosqichlarga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich 1941–1942 yillarni qamrab, unda asosiy e'tibor nafaqalar joriy etish va Qizil Armiya askarlarining oilalariga imtiyozlar berishga qaratilgan edi. Bu davr mamlakatning cheklangan resurs imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Keyingi bosqich esa 1943–1945 yillarga to'g'ri kelib, frontoviklar oilalarini qo'llab-quvvatlash tizimi kengaydi. Bu yillarda davlat mablag'lari ko'paytirilib, qo'shimcha manbalardan jalb etildi hamda yangi tashkiliy tuzilmalar orqali yordam ko'rsatish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Ba'zi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, frontoviklar oilalariga tayinlangan nafaqalar aslida “ijtimoiy-siyosiy targ'ibot vositasi” bo'lib, amalga haqiqiy yordam ko'rsatilmagan. Bu fikrni asoslash uchun 1943 yilda bozordagi oziq-ovqat narxlariga haqidagi quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: bir kilogramm go'sht taxminan 300 rubl, rjanoy un 160 rubl, bir kilogramm saryog' qariyb 800 rubl, bir litr sut 80 rubl, o'nta tuxum esa 180 rubl atrofida turgan[2;]. Shu raqamlarga tayanib, oilalar davlatdan olayotgan nafaqa mablag'lari bilan deyarli zarur mahsulotlarni xarid qila olmagan, degan xulosa chiqarilgan.

Birinchi, aslida frontoviklar oilalari uchun belgilangan nafaqalar ularning barcha ehtiyojlarini qoplash maqsadida joriy etilmagan, balki faqatgina qo'shimcha moddiy yordam vazifasini bajargan. Shahar aholisining asosiy tirikchilik manbai ish haqi hisoblanardi. Shu sababli mahalliy hokimiyat organlari harbiy xizmatchilarning turmush o'rtoqlari va mehnatga layoqatli boshqa a'zolarini ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratgan. Masalan, 1943 yilda o'qituvchilarning oylik maoshi tajriba va razryadiga qarab o'rtacha 350–575 rubl bo'lgan, shuningdek sinf rahbarligi uchun yana 50–75 rubl qo'shimcha haq to'langan [3]. Vrachlar hamda mudofaa sanoatida faoliyat yuritgan ishchilarning daromadi esa oyiga taxminan 800 rublga yetgan. Shu bilan birga, mehnat unumdorligini oshirgan peshqadam ishchilar belgilangan miqdordan ko'proq ish haqi olish imkoniyatiga ega bo'lishgan.

Ikkinchidan, frontoviklar oilalariga to'langan nafaqalarni bozor narxlariga qiyoslash bir tomonlama yondashuv hisoblanadi. Chunki ko'rsatilgan raqamlar 1943 yilning o'talariga oid bo'lib, urush davridagi eng yuqori nuqtani aks ettiradi. Urushning dastlabki oylarida esa oziq-ovqat mahsulotlari narxi nisbatan past darajada bo'lgan. Masalan, 1941 yil yoz oylarida Chelyabinsk viloyatida sutning bir litri 3–4 rubl, go'shtning bir kilogrammi 18–24 rubl, kartoshkaning bir kilogrammi esa 2–2,5 rubl atrofida bo'lgan. Shuningdek, 1943 yil ikkinchi yarmidan boshlab bozordagi keskin qimmatchilik bosqichma-bosqich pasaydi. Masalan, Chelyabinsk shahrida 1943 yil iyundan 1945 yil noyabrigacha bir kilogramm unning narxi 200–350 rubldan 23 rublga tushgan. Xo'sh, govtur (govyadina) 200–300 rubldan 40 rublga, sut 50–90 rubldan 20 rublga, kartoshka 60–80 rubldan 5 rublga, o'nta tuxum 130–200 rubldan 55 rublga arzonlashgan. Saryog'ning bir kilogrammi esa 600–800 rubldan 200 rublga pasaygan [4;].

Uchinchi, frontoviklar oilalarining mutlaq ko'pchiligi oziq-ovqat mahsulotlarini bozordan emas, balki davlat do'konlaridan xarid qilishgan. Bunday savdo shaxsiy kartochkalar orqali amalga oshirilgan bo'lib, narxlar bozordagidan bir necha barobar arzon hisoblangan. Masalan, 1945 yilda normalashtirilgan savdo nuqtalarida SSSR bo'ylab govturning bir kilogrammi 12 rubl, sutning bir litri 2 rubl, o'nta tuxum 6,5 rubl, saryog'ning bir kilogrammi esa 26 rubl turardi [5;].

To'rtinchidan, qishloqda yashagan frontoviklar oilalari o'z oziq-ovqat ta'minotini ko'p hollarda mustaqil hal qilish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Deyarli har bir oilada tovuq, mol, echki boqilgan, kartoshka va sabzavot yetishtirilgan. Kolxozchilarning asosiy daromadi esa mehnat kunlari hisobidan belgilangan.

Beshinchidan, urush yillarida ko'plab shahar aholisiga shaxsiy bog'dorchilik uchun yer uchastkalari ajratib berilgan. Shu bilan birga, korxonalar va muassasalar o'z xodimlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'shimcha yordamchi xo'jaliklar tashkil etgan va bu orqali ishchilar ish vaqtida ovqat bilan ta'minlangan. Bunday choralar bozordagi yuqori narxlar va frontoviklar oilalariga tayinlangan nisbatan kichik nafaqalarga qaramay, aholining og'ir yillarda tirikchilik qilib qolishiga imkon berdi. Davlat nafaqalaridan tashqari harbiy xizmatchilar oilalari uy-joy to'lovlari, soliqlar, farzandlarining ta'limi, shuningdek majburiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari topshirish masalalarida turli imtiyozlarga ega bo'lishgan [6].

Ikkinchi bosqich (1943–1945 yy.)- davlatning harbiy xizmatchilar oilalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatining yordam tizimining yanada barqaror tus olishi bilan tavsiflanadi. Bunda asosiy omil sifatida moliyalashtirish hajmining ko'payishi muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, 1943 yilda davlat budjeti taqchilligi 1942 yilga nisbatan uch barobarga qisqargan (1,8 mlrd rubldan 600 mln rublga), 1944 va 1945 yillarda esa har yili 400 mln rubl miqdorida profitsit kuzatilgan [7]. Shu kabi iqtisodiy imkoniyatlar davlatga frontoviklar oilalariga samaraliroq yordam ko'rsatishga sharoit yaratdi.

1943 yilda harbiy xizmatchilar oilalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida yangi tashkiliy tuzilma – Harbiy xizmatchilar oilalarini davlat ta'minoti va maishiy shart-sharoit bilan ta'minlash bo'limlari” tashkil etildi. Ushbu bo'limlarning asosiy vazifalari frontoviklar oilalarini possobiya va nafaqalar bilan ta'minlash, ularning mehnatga layoqatli a'zolarini ishga joylashtirish va kundalik ehtiyojlarini qondirishga ko'maklashishdan iborat edi. Shu bilan birga, belgilangan imtiyozlarni taqdim etish, harbiy xizmatchilar oilalaridan kelib tushgan ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha zarur choralarni ko'rish kabi vazifalar ham ular zimmasiga yuklatilgan.

Davlat va ijroiya hokimiyat organlari bilan bir qatorda frontoviklar oilalariga yordam ko'rsatishda korxonalar, artellar va turli muassasalar jamoalari ham muhim ijtimoiy subyekt sifatida qatnashgan. Ayrim korxona va tashkilotlar ishchilari kundalik ehtiyoj uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarib, ularni Qizil Armiya askarlarining oilalariga yetkazib berishga harakat qilishgan [8]. Masalan, 1940-yillar mobaynida "Uchqun" arteli faoliyati nafaqat ishlab chiqarish bilan, balki ijtimoiy yo'nalishdagi tashabbuslar bilan ham uyg'unlashgan. Xususan, 1944 yil 12 aprelda bo'lib o'tgan yig'ilish bayonnomasiga ko'ra, artel qoshida maxsus moddiy fond tashkil etilgan bo'lib, urush qatnashchilari va ularning oilalariga yordam ko'rsatish maqsadida faoliyat yuritgan. Fond mablag'lari hisobidan front ortida og'ir ahvolda qolgan fuqarolarga moddiy yordam ajratilgan.

Protokolda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, qarori qabul qilingan arizalar asosida turli oilalarga 200–500 rubl miqdorida moliyaviy ko'mak ajratilgan. Bu mablag'lar artel fondi hisobidan ajratilgani jamoa tashabbuslarining davlat siyosati bilan uyg'un ravishda amalga oshirilganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, qizil armiya askarlari, ularning yaqin qarindoshlari va urushda jabr ko'rgan fuqarolarga yordam berish masalasi alohida e'tiborda bo'lgan.

Ushbu hujjatlar urush yillarida mahalliy korxonalar faqat ishlab chiqarish vazifalarini bajaribgina qolmay, balki ijtimoiy jihatdan ham aholini qo'llab-quvvatlashga harakat qilganini ko'rsatadi. "Uchqun" arteli misolida ko'rinishicha, mehnat jamoalari qoshida tashkil etilgan fondlar orqali aholiga moddiy ko'mak ko'rsatish front ortidagi ijtimoiy siyosatning muhim amaliyotiga aylangan [9].

Davlat tomonidan ko'rsatilgan yordamga qaramasdan aholining tashabbusi bilan front uchun ijtimoiy yordam harakatlari yo'lga qo'yildi. Turli tuman va viloyatlarda kolxozchilar va yoshlar qo'shimcha oziq-ovqat, kiyim-kechak va mablag' yig'ib, frontga yo'naltirdilar. Masalan, Qashqadaryo viloyatida yoshlar va kolxozchilar tomonidan katta miqdorda mablag' va mahsulot topshirilgan. Shuningdek, respublikada "homiy kolxozlar" tashkil qilinib, ular front qismlariga muntazam ravishda oziq-ovqat va kiyim-kechak yetkazib turdilar.

Birinchi navbatda, front uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak va turli xo'jalik mahsulotlari yig'ib berildi. Masalan, 1941-yilning oxiriga qadar O'zbekistondan frontga 17 323 tonna go'sht, 25 053 tonna non, 3 000 tonna yog', 1 600 000 juft poyabzal va katta miqdorda kiyim-kechak yuborildi. Shu bilan birga, respublikaning mehnatkashlari 1 500 000 kilogramm qandolat mahsulotlari va 40 000 dan ortiq turli xo'jalik buyumlarini ham topshirdilar [10].

Urush yillarida mehnatkashlar nafaqat evakuatsiya qilingan aholiga balki, o'z oilalaridan ajralgan frontoviklarning yaqinlari haqida ham qayg'urdilar. 1941–1945-yillar mobaynida respublikada 109 892 oila ijtimoiy yordam bilan qamrab olindi. Jumladan, ularga 78 000 tonna go'sht, 25 500 tonna un va turli turdagi kiyim-kechak tarqatildi. Faqat 1943-yilning o'zida O'zbekistonda 16 537 frontovik oilasiga davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan yordam ko'rsatilgan [11].

Bundan tashqari, 1944-yilga kelib, fuqarolar shaxsiy mablag'laridan 200 mln. so'mdan ortiq himoya fondiga topshirdilar. Bu mablag'larga tank kolonnalari, samolyotlar va

turli harbiy texnika sotib olindi. Bu holat aholining iqtisodiy imkoniyatlari bilan siyosiy sadoqati uyg'unlashib, front ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilganini ko'rsatadi.

Misol tariqasida, Toshkent viloyatining o'zi front qatnashchilari oilalariga 15 qoramol, 30 qo'y, 76 ming kilogramm oziq-ovqat mahsulotlari, 2988 tonna yoqilg'i, shuningdek 258 850 so'm pul yetkazib berdi. Shu bilan birga, 2531 kvartira ajratib berildi. Qishloq komsomollari va yoshlari 1637 gektar yerda hosil yetishtirib, uni front oilalariga topshirdilar.

O'zbekiston kolxozlari ozod qilingan hududlar aholisiga ham katta moddiy yordam ko'rsatdilar. Respublika kolxozlari ozod qilingan tumanlarga 182 ming qo'y yubordilar. Shuningdek, Toshkent viloyati MTSlari Stavropol va Krasnodar kraylari hamda Ukrain SSRining ozod qilingan hududlariga 270 traktor, 270 plug, 106 turli xil qishloq xo'jaligi uskunolari, 41 avtomobil va 16 kombayn jo'natdi [12].

Qashqadaryo viloyatida ham ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri frontoviklar va halok bo'lganlarning oilalariga g'amxo'rlik ko'rsatish bo'ldi. Mahalliy hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari va xalq ommasi birgalikda harakat qilib, oilalarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni tashkil etdilar. So'nggi ikki yil mobaynida shaharda frontchilarning oilalaridan 11 800 kishi ishga joylashtirildi, 428 kishi o'qishga yuborildi, 29 385 kishi soliqlardan ozod qilindi, 8 200 uy remont qilindi [13]. Bu raqamlar davlat va jamoatchilik tomonidan ko'rsatilgan g'amxo'rlik ko'lamini namoyon qiladi.

Urush davrida viloyatdan taxminan 40 mingga yaqin yigit frontga jo'nab, shulardan qariyb 20 ming nafari halok bo'ldi yoki nogiron holda qaytdi, yana shunchaga yaqin odam frontdan qaytmagan. Shu bilan birga, respublika miqyosida 1,5 million o'zbekistonlik urushga jalb etilgan, ulardan 500 mingdan ortiq kishi halok bo'lgan [14]. Keyingi tadqiqotlar esa urushga jalb qilingan o'zbekistonliklar soni 1 million 951 ming kishiga yetganini ko'rsatdi. Biroq, 1920–1930 yillarda "quloqqa tortilgan" va sovuq hududlarga surgun qilingan 59 mingdan ortiq vatandoshlarimiz ham harakatdagi armiyaga safarbar etilgan [15]. Ular orasida frontda halok bo'lganlari ham, urushda to'liq ishtirok etganidan keyin qamoq lagerlariga qayta yuborilganlari ham bo'lgan. Afsuski, ularning nomlari rasmiy ro'yxatlarda urush qatnashchilari sifatida qayd etilmagan. Bu holat ijtimoiy siyosatdagi adolatsizlik va milliy manfaatlarining e'tiborsiz qolganidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Ulug' Vatan urushi yillarida O'zbekiston mehnatkashlari ko'rsatgan yordam ko'p qirrali va keng qamrovli bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlarini qamrab oldi. Davlat tomonidan belgilangan nafaqalar, imtiyozlar va tashkiliy choralar frontoviklar oilalarining turmushini yengillashtirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, xalqning o'z tashabbusi bilan amalga oshirilgan moddiy va ma'naviy yordam harakatlari milliy birdamlik va yuksak vatanparvarlik hissining amaliy ifodasi sifatida tarixda qoldi. Bu tajriba O'zbekiston xalqining urushdagi hissasi nafaqat iqtisodiy resurslar, balki ma'naviy kuch va ijtimoiy birdamlik bilan ham ta'minlanganini ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Указ Президиума ВС СССР от 26.06.1941 «О порядке назначения и выплаты пособий семьям военнослужащих рядового и младшего начальствующего состава в военное время»//Правда, орган ЦК ВКП(б).–1941.–27 июня.–С. 1.
2. Цена жизни, или выплаты семьям фронтовиков в годы войны и в послевоенное время, 20 марта 2020 г. – Электрон. текстовые дан. – Режим доступа: <https://zen.yandex.ru/media/moyaderevnya/cenajizni-ili-vyplaty-semiam-frontovikov-v-gody-voyny-i-vposlevoennoe-vremia-5e7466fde5fa715ea911d4ef> (дата обращения: 17.11.2020).

3. Постановление Совнаркома Союза ССР и ЦК ВКП(б) «О повышении заработной платы учителям и другим работникам начальных и средних школ» № 875 от 11 августа 1943 г. // ГАРО. – Ф. Р-4130. – Оп. 1. – Д. 1. – Л. 49–50.
4. Кусков, С. А. Цены военного времени, 26 декабря 2011 г. / С. А. Кусков. – Электрон. текстовые дан. – Режим доступа: <https://archive74.ru/tsenyvoennogo-vremeni> (дата обращения: 19.11.2020)
5. Советская жизнь. 1945–1953 гг. : сб. док. – М. : РОССПЭН, 2003. – Электрон. текстовые дан. – Режим доступа: <https://istmat.info/node/18463> (дата обращения: 20.11.2020). – Загл. с экрана.
6. Циткилов П.Я. Положение семей военнослужащих в годы великой отечественной войны. Вестник ВолГУ. Серия 4, История. Регионоведение. Международные отношения. 2021. Т. 26. № 1 -С. 172-181.
7. Чадаев, Я. Е. Экономика СССР в годы Великой Отечественной войны (1941–1945 гг.) / Я. Е. Чадаев. – 2-е изд., перераб., доп. – М. : Мысль, 1985. – 494 с.
8. Циткилов П.Я. Положение семей военнослужащих в годы великой отечественной войны. Вестник ВолГУ. Серия 4, История. Регионоведение. Международные отношения. 2021. Т. 26. № 1 -С. 172-181.
9. Қашқадарё вилояти давлат архиви. Ф. 1, Оп. 1, Д. 175. 116-117-вароқ.
10. ЦПА ИМЛ при ЦК КПСС, фонд 17, оп 8, дело 95, л 43
11. Партархив института истории партии при ЦК КПУз, фонд 58, оп 19, дело 1025, л 38
12. Ибрагимов Н.Р. Из истории социалистической взаимопомощи трудящихся города и колхозной деревни Узбекистана в годы великой отечественной войны (1941-1945) . Общественные науки в Узбекистане. 1962, №7, - С.32-41.
13. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. – Тошкент: Akademnashr, 2017. – Б. 301
14. Ўзбекистон халқининг фашизм устидан қозонилган ғалабага қўшган ҳиссаси. 1941-1945 йиллар. Китоб альбом. - Тошкент: Ўзбекистон, 2020, -Б.12.
15. Мирзиёев Ш.М. Буюк Ғалабанинг 75 йиллиги ҳамда Хотира ва кадрлаш кунига бағишланган тантанали маросимда нутқи/ Миллий тикланишдан-миллий юксалиш сари: расмий нашр. 4-жилд.-Тошкент:”Ўзбекистон”, 2020.-Б.429.